

**TURKISTON ASSRDA PEDAGOG-KADRLAR TAYYORLASHGA
MAHALLIY MA'RIFATPARVARLAR
QO'SHGAN HISSASI**

Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg'ona akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston ASSRda pedagog-kadrlar tayyorlashga mahalliy ma'rifatparvarlar qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'z: *Maorif, "Ibtidoyi sho'ba", «Bezbojnik», Turkiston Xalq Universiteti.*

Chor hukumati davrida mahalliy aholi o'qituvchilarini qayta tayyorlash tizimini yaxshilash chora-tadbirlari ko'rilmagan. Faqatgina uchta o'qituvchilar kursi tashkil etilgan. Shuning uchun Turkistonda o'qituvchilarga ehtiyoj juda katta edi. O'n yillar davomida o'qituvchilar tarkibi yangi kadrlar bilan to'ldirilmagan. 1916 yilga kelganda Turkistonda uchtagina o'qituvchilar seminariyasi bor edi, xolos. Bular, 1913 yilda ochilgan Verniydagi o'qituvchilar seminariyasi, 1915 yili ochilgan Turkiston o'qituvchilar instituti, lekin unda birorta ham bitiruvchi bo'lmagan, chunki, 1917-yili yopilgan edi. Uchinchisi Turkiston o'qituvchilar seminariyasi 38 yil (1879 - 1917) faoliyat ko'rsatib, uni 254 mutaxassis bitirgan bo'lib, ulardan 34 nafari mahalliy kadrlar edi⁹³. Toshkentdagi o'qituvchilar seminariyasida o'quvchilar nafaqat pedagogika sohasidagi nazariy bilimlar, shu bilan birga pedagogik sohadagi amaliy ko'nikmalarni o'rganardilar. Shu maqsadda seminariya qoshida ustoz rahbarligida namunali maktab tashkil etildi.

1917-yil 8 – 10 sentyabr kunlari “Sho'roi Islom” tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlari II qurultoyida muhokama qilingan eng dolzarb masalalardan biri maorif masalasi bo'lib, bu haqida quyidagi qarorlar qabul qilingan edi: “1. Muhammad Amin Afandizodaning 22 moddadan iborat (maorifga oid – M.A.) loyihasi qabul qinlinsin. 2. Markaziy va mahalliy “Sho'roi Islomiya”lar huzurida jiddiylik bilan ish ko'radigan maorif sho'balari tuzilsin. 3. Maorif ishlari o'z ixtiyorlari bilan boshqarilsin. 4. Duma va zemstvolarda maorifga sarf qilinadigan mablag'lar hay'at a'zolarining ishtiroki bilan taqsimlansin”. Toshkentda Xalq universitetining tashkil etilishi mahalliy taraqqiyparvarlar tomonidan milliy oliy o'quv yurti ochish uchun harakatlarini tezlashtiradi. 1918-yil 9 aprel kuni Munavvar qori raisligida hay'at tuzildi. Hay'at tarkibi Munavvar qori, Burhon Habib, muxtor Bakir, Murod Xo'ja, Iso To'xtaboev, Sodiq Abdusattorov, Abdusamig' qori Ziyoboev va boshqalardan iborat bo'lgan. 1918-yil 2 may kuni hay'at rus xalq dorilfununi (Turkiston Xalq universiteti – M.A.) kengashi va Turkiston Xalq Maoriya komissarligi tomonidan tan olinadi. Mana shundan so'ng hukumat tomonidan mablag' ajratadi. Tashkilot komissiyasi a'zolariga bajargan ishlari ko'lamiga qarab, 200 dan 450 so'mgacha maosh to'lanadi. 3 may kuni Tashkilot komissiyasining navbatdan tashqari kengaytirilgan majlisi bo'lib, unda Musulmon xalq dorilfununi rahbariyatiga saylov bo'ladi. Unda Munavvar qori Abdurashidxonov rais (rektor), Burhon Habib muovin, Abdusamig' qori Ziyoboev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadi. 1918-yil 12 may kuni esa dorilfununning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tadi. Musulmon xalq dorilfununi 15 ta

ilmiy-ijodiy, madaniy-ma'rifiy va demokratik musulmon uyushma hamda tashkilotlar vakillaridan iborat 45 kishilik kengash tomonidan boshqarilgan. Uning ilmiy-ijodiy muallimlari jamoasi tez orada 229 kishiga etgan. Uning 22 tasi oliy diniy madrasalar, 2 tasi Rossiya universitetlarini bitirgan edilar. Ular orasida o'nlab taniqli jadid shoir va adiblari, jadid maktabi va darsliklari asoschilari, 20 ga yaqin turli soha vakillari bor edi. Dorilfununda o'qish muddati 5 yil bo'lib, unda quyidagi bosqichlar faoliyat ko'rsatgan: I. Oliy bosqich. Bunga dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti) kiradi; II. O'rta bosqich. Bunga kasb-hunar o'rgatuvchi har xil maxsus kurs va to'garaklar kiradi. Masalan, erkaklar uchun rasmsozlik, duradgorlik, xotin-qizlar uchun bichish-tikishni o'rgatish hamda bolalar bog'chasi uchun tarbiyachilar tayyorlash va boshqalar kiradi; III. Quyi bosqich – "Ibtidoiy sho'ba" (bo'lim). Buning o'zi 15 yoshdan kichik bo'lmaganlar qabul qilinadigan uch guruhga bo'linadi: 1) savodi bo'lmaganlar; 2) oldin eski maktabda o'qib savodi chiqqan, ammo dunyoviy ilm-fanlardan xabari bo'lmaganlar; 3) ibtidoiy (boshlang'ich) va "rushdiy" maktabini bitirib yanada chuqurroq bilim olmoqchi bo'lganlar. O'quv yurtining Kabir Bakir afandi noshirligidagi "Xalq dorilfununi" gazetasi 1918-yil 31 maydan boshlab chiqa boshlagan. Dorilfununda o'quv ishlarini tashkillash uchun 5 yillik dastur ham qabul qilinadi. Dasturga ko'ra, bir yil tayyorlov kursiga, qolgan to'rt yili esa asosiy kurslarga ajratiladi¹⁰⁷. Bundan ko'rinadiki, dastlabki milliy oliy o'quv yurtining mukammal dasturi 1918-yilda paydo bo'ldi. Buning uchun Toshkentda imkoniyat, ya'ni musulmon ilmiy-pedagogik kuchlari etarli edi. Aks holda besh yillik oliy o'quv yurtining dasturi ishlab chiqilmagan bo'lar edi.

1918 – 1919 yillarda Turkistonning turli hududlarida pedagogik o'quv yurtlari tashkil etildi. Masalan, Qo'qonda temir yo'l texnikumi, Andijonda pedagogika texnikumlar ochiladi. Pedagog o'qituvchilar tayyorlash maqsadida 1918-yil Qo'qon shahridagi maktablarning birida uch oylik o'qituvchi tayyorlash kursi tashkil etilib, 1921 yil 1 noyabrga qadar uni 200 ga yaqin kishi bitirgan. 1919-1920 yillarda Qo'qonda xotin-qizlar instituti, o'rta texnik o'quv yurti tashkil etildi, ularda mahalliy millatga mansub kizlar ta'lim olishi yo'lga qo'yildi. 1920

yilda Qo'qon shahrida birinchi pedagogika texnikumi ochildi. Bilim yurtida o'zbek tili va adabiyoti fanidan Ashurali Zohiriy, rus tili va geografiya fanidan esa bilim yurtining tashkil etilishiga katta hissa qo'shgan shaxslardan biri T.N.Qori-Niyoziy talabalarga saboq bergan. Biroq, mazkur texnikumda maxalliy millatga mansub qizlar ta'lim oluvchilarning 7 - 8 foizini tashkil etgan, xolos. Buning sababi qizlarning o'qishga kam qatnashishi sabablarini diniy ulamolar qarshiligi, sovet maktabi oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la anglab etgan o'qituvchilarning yetishmasligi, darsliklar va qo'llanmalarning yo'qligi bilan izohlanar edi. 1918-yil 8 iyul Andijon shahrida Turkiston xalq universitetining filiali, noyabr oyiga kelib shaharda politexnika bilim yurti, pedagogika bilim yurti (8.731 talaba) tashkil qilingan.

1920/21-o'quv yilida pedagogik bilim yurtlarida (qisqa muddatli kurslardan tashqari) 1745 nafar talaba tahsil olgan bo'lib, ularning asosiy qismini mahalliy yoshlar tashkil etgan¹²⁸.

1918-yil 8 iyulda Andijon shahrida Turkiston Xalq Universitetining filiali, noyabr oyiga kelib shaharda politexnika bilim yurti, pedagogika bilim yurti (8.731 talaba) tashkil qilingan. 1920 yil 20 fevralda Andijon shahrida 60 kishiga mo'ljallangan o'qituvchilar

tayyorlash kurslari ochilgan. Kurslarda ayni vaqtda 65 nafar mahalliy aholi vakillari tahsil olishgan. Shu yilning 1 may oyidan boshlab 3 ta ayollardan iborat o'qituvchi tayyorlovchi kurslar ham ochilib, u erda dastlab mahalliy aholi vakillaridan 10 kishi ta'lim olgan. Shunday qilib, sovet hukumatining dastlabki yillarida xalq ta'lim tizimi uchun pedagog-kadrlar tayyorlash masalasi ham qisman hal etildi. Lekin bunda mahalliy millat vakillari tomonidan tashkil etilishi mo'ljallangan har qanday milliy o'quv yurtlari tashkil etilishi loyihasi rad etilib, asosiy e'tibor markaziy hukumatga xizmat qilishga mo'ljallangan o'quv yurtlari tashkil etishga qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики. – Ташкент, 2017.
2. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. – Тошкент. Шарк, 2003.
3. Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент, 1976.
4. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. – Тошкент. O'zbekiston. 2019. – Б. 351.
5. Abduqahhorov Mirzo Ulug'bek Baxtiyor o'g'li. Turkiston ASSR ta'lim tizimini tashkil etishda mahalliy ma'rifatparvarlar o'rni magistrlik dissertatsiyasi.